

JALOLIDDIN MANGUBERDI VATAN QAHRAMONI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Mamasaidova Ruxshona Qarshi qizi
ruxshonamamasaidova518@gmail.com.

Tel: +998944611363.

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Nasullayeva Shahnoza Muxtor qizi
shahnozanasullayeva0@gmail.com

Tel: +998916311207

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Usmonov Nurmuhammad Eshmahmat o'g'li
nurmuhammadu06@gmail.com.

Tel: +998903777796

Annotatsiya. Hammamizga ma'lumki har bir davlatning shu kungacha yashab va rivojlanib kelayotganligi tarixiy taraqqiyot jihatidan oson bo'lgan emas. Ya'ni bu yuksalish uchun butun hayotini jangu jadallarda o'tkazib vatani uchun joni fido bo'lgan qahramonlarning hissasi buyukdir. Shunday buyuk qahramonlardan biri Xorazmshoh sulton Jaloliddin Manguberdi hisoblanadi. Mazkur maqolada Jaloliddin Manguberdi hayoti va o'z vatani himoyasi uchun olib borgan kurashi va ayni vaqtda yurtimizda va dunyo mamlakatlarida uning yuksak xotirasini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan tadbirlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Jaloliddin Manguberdi, Gurgancha, Chingizxon, Parvon, Valiyon, Pirshoh, Arzinjon, Rukniddin Jaxonshoh, Amid tog'lari, Shamsuddin Eltutmish

Аннотация. Все мы знаем, что существование и развитие каждой страны было нелегким с точки зрения исторического развития. То есть велик вклад в этот подъем героев, отдавших свою жизнь за свою страну, проводивших всю свою жизнь в боях. Одним из таких великих героев является Хорезмшах Султан Джалалуддин Мангуберди. В данной статье представлены сведения о жизни и борьбе Джалалуддина Мангуберди за защиту своей Родины, а также о мероприятиях, организованных в нашей стране и в странах мира по увековечению его великой памяти.

Ключевые слова: Джалалуддин Мангуберди, Гурганча, Чингисхан, Парван, Валиан, Пиршах, Арзинджан, Рукниддин Джаханшах, Среди гор, Шамсуддин Эльтутмиш

Abstract. We all know that the existence and development of every country has not been easy in terms of historical development. That is, the contribution of the heroes

who sacrificed their lives for their country, spending their whole lives in battles, is great for this rise. One of such great heroes is Khorezmshah Sultan Jalaluddin Manguberdi. This article provides information about Jalaluddin Manguberdi's life and struggle for the protection of his homeland, and at the same time, the events organized in our country and in the countries of the world to perpetuate his great memory.

Keywords: Djalaluddin Manguberdi, Gurgancha, Genghis Khan, Parvan, Valian, Pirshah, Arzindjan, Rukniddin Djahanshah, Sredi Gor, Shamsuddin Eltutmish

Jaloliddin Anushteginiylar sulolasidan bo'lgan Xorazmshoh Alovuddin Muhammad va uning rafiqasi Oychechakning to'ng'ich o'g'li edi. Jaloliddin Manguberdi to'liq ismi Jaloliddin Abulmuzaffar Manguberdi ibn Muhammad bo'lib 1198-1231-yillar oralig'ida yashab o'tgan. Jaloliddin 33 yil umr ko'rgan bo'lib, shundan 11 yili turli janglar ichida o'tgan. Jami 14 ta jangdan 13 tasida o'zining mardonavor kuchini ko'rsatib dushmanlar ustidan g'alaba qozongan. Dastlab u taxt uchun asosiy da'vogar hisoblanmagan, chunki onasi Oychechak Aluddin Xorazmshoh haramidagi kanizaklardan biri edi. Taxt vorisi G'iyosiddin Pirshoh bo'lgan va uning taxt borasidagi da'volarini onasi Turkon Xotun qo'llab quvvatlagan. Ammo, otasi o'limi oldidan Jaloliddinni taxt vorisi qilib tayinlaydi. Jaloliddining burnida xoli (mank) bo'lgani uchun ham Mankburni nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o'zgarib „Manguberdi“ nomi bilan mashhur bo'lib ketgan[1]

Xorazmshohlar davlati tashqaridan qanchalik qudratli bo'lmasin, aslida vaziyat butunlay boshqacha edi. Xorazmshohning kam sonli qo'shini, garchi ularning soni mo'g'ullar sonidan ko'p sonli bo'lishiga qaramay, bu armiya yomon intizomga ega. Bular asosan janubdan olib kelingan yollanma askarlar bo'lib bu armiya mudofaa uchun emas, balki , talonchilik, o'lja olish uchun mo'ljallangan. Aksincha, mo'g'ullar qo'shini yaxshi tayyorlangan, qat'iy intizomli, katta jangga tayyor edi. Sulton Xorazmshohlar saroyida sultondan boshlab amaldorlargacha bir-biriga ishonchning yo'qligi turli millat vakillaridan iborat armiyada birdamlik va hamjihatlik bo'lmaganligi ba'zi katta shaharlar va Qishloq aholisi ham Sultonning soliq va siyosatidan charchaganligi tufayli markaziy hukumatga Ishonchsizlik mo'g'ullarning muammosini osonlashtirdi. Otasi vafotidan keyin Jaloliddinning o'zi taxtga o'tirib, barcha amirlar ukalari bilan birlashib, mo'g'ullarga qarshi kurash olib borish niyatida edi. Lekin shu maqsadiga erisha olmadi. Otasining vafotidan xabar topib, Gurganjga jo'nab ketdi.o'zi bilan 300 nafar sodiq askarni oladi. Ular doimo otda yurishdi va Gurganjga yetib boradilar. Yo'lda, qal'alarda to'xtab, u erda dam oldilar. Amirlardan bay'at oladi. Jaloliddin ularga Sulton ekanligini aytdi va mo'g'ullar bilan jangga tayyorgarlik ko'rishni buyurdi va yo'lida davom etdi. Gurganjga ular yetib borganlarida, Sulton Muhammad allaqachon vafot etganini bilib, uning o'rniga Sulton Jaloliddin hukmdor bo'lganini butun raiyat eshitgan edi. O'sha vaqtda Xorazmshohlar

davlatining katta qismini o'ziga bo'ysundirgan Chingizxon davlat yanada susayganidan foydalanib Gurgancha atrofida 100.000 dam ziyod qo'shin bilan paydo bo'la boshladi. Shahar devorlarini buzish uchun manjaniqlar o'rnatildi. Mug'ullar shaharni katta kuch bilan bosib olishga kirishdilar. Afsuski Sulton Jaloliddin shahar mudofaasiga bosh bo'la olmadi, ammo o'sha vaqtda shahar ichida Xorazmshohlarning 90 ming qo'shini ham bor edi. 1221-yildan boshlangan Gurganch qamali deyarli 7 oy davom etdi. Shahar mudofaachilari qancha harakat qilishmasin qudratli Chingizxon qo'shinlarini yenga olishmadi, ular mudofaa devorlarini o'zining jangovar qurollari bilan buzib shahar ichkarisiga kirib borishdi. Shahar ko'chalarida yana 7 kun janglar bo'lib o'tdi. Shahar to'liq bosib olingach har bir mug'ul jangchisiga 24 tadan shaharlik asir qilib bo'lib berildi[2]

Jaloliddin Manguberding mug'ullarga qarshi ilk bora jangi 1221-yilda Parvon (kobul daryosining irmog'i Lug'or arig'ining boshlanish yeriga to'g'ri keladi) dashtida bo'lib o'tgan. U bu yerda turib dastavval Toxaristondagi Valiyon qal'asini qamal qilayotgan Ta'lachuq va Mulg'or boshchiligidagi mug'ul qo'shinini mag'lub etgan. Sarosimaga tushib qolgan mug'ullar daryodan kechib o'tib o'z yurtlariga qaytib ketishadi, olim Ibn Al - Asirning ta'kidlashicha bu g'alaba Jaloliddinning birinchi yirik g'alabasi edi[3] Ammo bu jang natijasida Jaloliddinning eng yaxshi sarkardalari Sayfiddin Ag'roq, Azam Malik va Muzaffar Maliklar qo'shin safidan chiqib ketishadi. Ularning alohida bo'lib ketganligidan qayg'uga tushgan Jaloliddin o'z mulklarini tashlab Hindistonga ketmoqchi va u yerda kuch to'plab Chingizxonga qarshi yurish qilish rejasini tuzib chiqadi. Ammo qo'shini kamayganligidan xabar topgan Chingizxon bunday imkoniyatni qo'ldan chiqarmaslik uchun unga qarshi yurish elon qiladi va bu yurishga shaxsan o'zi boshchilik qiladi[3].

Nihoyatda tezlikda harakatlanishi natijasida, 1221- yilning 20-noyabr kuniyoq Chingizxon qo'shinlari Jamoliddinning Urxun boshliq Chindoviliga yetib olib u bilan jangga kirishadilar mag'lubiyatga uchratadilar Chingizxon bunday tez harakati Jaloliddinning Hind daryosidan kechib o'tib butun askari va oila harami bilan Hindistonga o'tib ketishdek rejasini amalga oshmasligiga olib keldi. Jaloliddin xatto oilasi va haramini ham narigi qirg'oqqa o'tkaza olmaydi. Oxir oqibat chorasiz qolgan Jaloliddin Chingizxonga qarshi jang maydoniga kirishga majbur bo'ladi. Bu jangda Jaloliddinning haqiqiy lashkarboshilik qobiliyati ko'zga yaqqol tashlanadi. Ammo Jaloliddinning qo'shin soni Mug'ullarga nisbatan kam bo'lganligi tufayli asta sekin mag'lubiyatga uchray boshladi, shunga qaramay u jon jahdi bilan Chingizxonga qarshi kurash olib bordi. Chingizxonning tulg'ama jang usulidan foydalanib Jaloliddin qo'shinining o'ng qanotini yakson qilib tashlaganligi tufayli endi Jaloliddinning boshqa chorasi qolmadi va tirik qolgan jangchilari bilan o'zini Hind daryosiga otib nargi qirg'oqqa suzib ketdi[4]

Hind daryosi qirg'og'idan o'tganda u bilan taxminan 400 kishi ham suzib o'tgan edi. Jaloliddinning Hindistonga yetib kelganligidan xabar topgan Shatra viloyatining hokimi 1000 kishilik otliq va 5000 kishilik piyoda askarni unga qarshi yuboradi. Jangni ham birinchi Shatra viloyati hokimi boshlab beradi. Jaloliddin bor kuch g'ayratini ishga solib jang qiladi va raqiblarni tor - mor keltiradi. Shu tariqa Jaloliddinga atrofdagi boshqa Hind qabilalari ham kelib qo'shiladi asta sekin undagi qo'shin soni ortib boradi Bu vaqtda Dehli sultoni Shamsiddin Eltutmish Jaloliddinning kuch g'ayrati va uning Chingizxonga qarshi yurish uchun tayyorgarlik ko'rayotganligini yaxshi bilar edi shuning uchun ham u Jaloliddinga nisbatan o'ziga xos hurmati ham bor edi. Eltutmish o'zining unga qarshi harbiy harakatlarini to'xtatish va uning huzuriga o'z elchilarini sulh tuzish taklifi bilan yuborishni lozim topadi. Ular o'rtasida yaxshi munosabatlar o'rnatiladi, hatto Eltutmish o'z qizini Jaloliddinga nikohlab beradi. Ammo Jaloliddinning kun sayin mavqei ortib borayotgandan tashvishlangan Dehli sultonlari unga qarshi katta qo'shin yuboradi Bunday og'ir damlardan uning bir nechta sarkardalari Eltutmish tomonga o'tib ketishadi. Ancha zaiflashib qolgan Jaloliddin bu yerga bir qancha odamlarini tashlab o'zi 1224-yilda Iroqqa yo'l oladi[5]

Bu yerlarda Jaloliddinning ukasi Pirshox hukmdorlik qilar edi. Uning maishatga berilib ketganligi sababli hukumat ishlarini tashlab quygan va bundan oddiy xalq juda qiynalgan edi, shuning uchun Jaloliddinni bu yerda hamma qarshiliksiz iliq kutib olishdi. Ko'plab shaharlar unga tobeligini izhor qildi. Asta -sekin u Ozarbayjon undan so'ng Gurjistonni bosib oldi. Jaloliddin Ozarbayjonda katta davlat tuzib o'sha yerda Chingizxonga qarshi yurish uchun tayyorgarlik ko'rish rejasini tuzib chiqdi. Jaloliddin ittifoq tuzish maqsadida Bag'dod xalifasi Nosir huzuriga o'z elchilarini yuboradi. Ammo xalifa bu elchilarga javob qaytarmay aksincha Jaloliddinga qarshi Ko'shTemur boshchiligida 20 ming kishilik qo'shin yuboradi. Bu janga xalifalik qo'shinlari mag'lubiyatga uchraydi va Ko'shtemur jang maydonida o'ldiriladi. Jaloliddin umumiy dushman mug'ullarga qarshi o'ziga ittifoqchi topish maqsadida Ko'niya, Jazira, Damashq va Misr sultonlariga maktub yozadi ammo Jaloliddin ming kuchayib ketayotganligidan cho'chigan hukmdorlar unga qarshi ittifoq tuzib yurish qiladilar[6].

Jaloliddin va ittifoqchilar o'rtasidagi dastlabki jang 1230-yil 7-avgustda Arzinjon yaqinidagi Yassi Chamanda bo'lib o'tadi. Jaloliddin oldinroq yuborgan Uturxon boshliq 2000 kishilik otliq qo'shin ittifoqchilarning 6000 kishilik qo'shinini tor-mor etadi. Ammo Jaloliddinning xatosi dushman qo'shinlarini ta'qib etmadi, bu esa dushmanlarini kuch to'plab yana jangga kirishiga olib keldi. Ikkinchi jang 1230-yil 10-avgustda Arzinjon yaqinida bo'lib o'tdi. Bu vaqtda Jaloliddin kasallikdan juda qiynalib hatto ot minishga kuch yetmay qolgan edi. Lashkarboshilari uni dam oldirish maqsadida jang maydonidan olib chiqib ketishayotganini ko'rgan askarlari hukmdorimiz chekinmoqda deb ular ham jang maydonini tashlab ketishadi. Dastlab

dushman tomon bu Jaloliddinning hiylasi deb o'ylab jang maydonidagi tartibni buzishmaydi, keyinchalik bu haqiqiy chekinish ekanligini bilishgach Jaloliddin qo'shinlarini ta'qib etish boshlandi. Bunday sharoitda Jaloliddin Hirotga chekindi. Bu jangda Jaloliddinning Ulug'xon va Atlasxon kabi lashkarboshilari asir olinib qatl qilindilar. Uning ittifoqchisi Rukniddin Jaxonshoh ham asir olindi va keyinchalik qatl etildi[7].

Jaloliddinning yana bir asosiy dushmani Ismoililar edi. Hijriy 627-yilda (milodiy 1231-yilda) dahriy - Ismoililar yetakchisi mug'ullarga maktub yuborib unda Jaloliddin ancha zaiflashib qolganini hozir unga qarshi hujum qilishning ayni vaqti ekanligini aytib ularni bo'lajak urushga shoshirishadi. Jaloliddin mug'ullarning yurish boshlaganidan xabar topib Amid atroflariga keladi. Aynan o'sha yerda 1231-yilning 17-avgustda unga mug'ullar hujum qildilar va uni o'rab oldilar. Sulton bu yerdan Urxonning yordami bilan qochib ketishga muvaffaq bo'ldi. Mug'ul izquvarlari Jaloliddinni axtarib qishloqlarni ostin ustun qilishdi va nihoyat uning izini topishlari bilan 15 mug'ul suvoriysi uning izidan tushishdi. Ular Jaloliddin bilan yo'liqqanda sulton ularning ikkita askarini yer tishlatdi qolganlari qurqqanlaridan qochib ketishdi. So'ngra Jaloliddin Amid tog'lariga chiqib ketarkan yo'lda kurd qaroqchilariga duch keladi. Ular sultonning narsalarini olib qo'yishadi va o'zini o'ldirmoqchi bo'lganida Jaloliddin qaroqchilar boshlig'ining qulog'iga meni o'ldirma, men sultonman agar yurtimga olib borsang senga malik lavozimini beraman deydi, qaroqchi rozi bo'lib uni uyiga olib boradi va o'zi toqqa chiqib ketadi. Ammo bir kurd qaroqchisi uning uyiga kelib Jaloliddinga nayza sanchib o'ldiradi. Buyuk sulton Anushteginiylar sulolasining oxirgi hukmdori Chingizxonni lol qoldirgan ulug' sarkarda Jaloliddin Manguberdi bu olamdan shu tariqa ko'z yumadi[8]

Respublika ziyolilarining tashabbusi va s'ay - harakatlari natijasida nomi unut bo'lgan ko'plab buyuk tarixiy shaxslarning nomlari qayta tiklanib tarixiy adolat qaror topdi. Jumladan, mazkur sa'y - harakatlarning amaliy natijasi sifatida 1999-yilda Jaloliddin Manguberding 800 yillik yubileyi nishonlanib 2000-yilda "Jaloliddin Manguberdi ordeni" ta'asis etildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2018-yil 20-iyul kuni O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasining yadro fizikasi institutida o'tkazilgan majlisda esa, Jaloliddin Manguberdi siymosini uning faoliyati tarixini manbalar asosida jiddiy o'rganish dolzarb ilmiy masala sifatida belgilab bergan edilar hamda bu qahramon haqida xolisona va chuqur ilmiy tahlil qilingan kitob yozish to'g'risida fikr bildirgan edilar. Shuningdek Jaloliddin Manguberdi hayoti haqidagi uning kotibi an - Nasaviy tomonidan yozilgan "Siyrat as - sulton jalol ad - din mengburni" asari ham ko'plab davlatlarda tarjima qilingan va yosh kitobxonlarga topshirilgan[9]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shahobiddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi./ Kamol Matyoqubov tarjimasi. Toshkent, 1999-yil.
2. Qudrat Masharipov "Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda" T. 2019. 9-b
3. Ibn al - Asir. "Al - komil fit - tarix" 364-b
4. Juvayniy. "Tarixi jahonkusho" (jahon fotixi tarixi) 374-b
5. Qudrat Masharipov "Jaloliddin Manguberding jaxon siyosiy va harbiy tarixidagi oʻrni" T. 2021. 114-b
6. Bunyodov Z. "Anushtagin - Xorazmshohlar davlati" 228-229-b
7. Shahobiddin Muhammad Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi./ Kamol Matyoqubov tarjimasi. Toshkent, 1999-yil.
8. Bekzod Abduraimov "Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha". "Sharq ma'rifati" T. 2021. 68-b
9. Qudrat Masharipov "Jaloliddin Manguberdi buyuk vatanparvar sarkarda" T. 2019. 5-6-betlar